HUDUDIY RIVOJLANISHDA INNOVATSION MENEJMENT ORQALI AHOLINING FAROVONLIK DARAJASINI OSHIRISH

Akbarova Iroda Samatovna
O'zbekiston Respublikasi Xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
"Iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo'limi xodimi

Qabul qilindi: 02.02.2026
Ko'rib chiqildi: 02.02.2026
Tasdiqlandi: 03.02.2026

Kalit so'zlar:
Innovatsiya, innovatsion menejment, hududlar, tadbirkorlik, aholi farovonligi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda hududlardagi rivojlanishda innovatsion menejment tizimini saqlash, harakatbardosh taraqqiyotini ta'minlash orqali tadbirkorlikni rivojlatirish va aholini yashash muhitini yaxshilab, farovonlik darajasini oshirish uchun qilinayotgan chora tadbirlar muhokama qilinadi.

O'zbekiston Resbuplikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot va farovonlik yo'lida" asarida islohotlarning yangi bosqichida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha strategiyalar yoritilgan. Bu fikrlar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi bilan amaliy bosqichga o'tdi. Ushbu hujjat aholining farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlar – bandlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

Hududiy rivojlanishda innovatsion menejment – bu hududning iqtisodiy o'sishi, raqobatbardoshligini oshirish va aholi farovonligini yaxshilash uchun yangi g'oyalar, texnologiyalar, jarayonlar (mahsulotlar, xizmatlar)ni yaratish, joriy etish va boshqarishdir, bunda hududiy harakat, moliyaviy sanoat guruhlari, konsortsiumlar va strategik alyanslar muhim rol o'ynaydi. Innovatsion tizimni saqlash va harakatbardosh taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'ladi. U hududning barqaror va iqtisodiy boshqaruvi bilan yashash joyini

boshqarib,iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Innovatsion rivojlanishning amalga oshirilishi yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, aholi bandligining qayta ishlashga va mehnat bozori tarkibining diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Samarali innovatsion ekotizim shakllanadi, aholining turmush sifati yaxshilanib, zamonaviy ijtimoiy yordam va innovatsion yechimlarning ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiradi. Yashil texnologiyani qishloq xo'jaligi va sanoatda joriy etish atrof-muhitni tozalash bilan birga samaradorlikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot: raqamli xizmatlar, elektron tijoratni rivojlantirish, turizm sohasidagi innovatsiyalar (masalan, gastranomik turizm, ekoturizm) yaratilishini misol qilishimiz mumkin. Hududlarda innovatsion menejment orqali aholi farovonligini oshirish uchun innovatsion ekotizmni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, kichik biznesning innovatsion faolligini oshirish, yangi texnologiyalar yaratish va ularni joriy etish, hamda davlat-xususiy sherikliklarni yo'lga quyish zarur bo'lib, bu orqali raqobatbardoshlik, yangi ish o'rinlari yaratiladi, iqtisodiyot o'sadi va aholi turmush darajasi yaxshilanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsiyalar va to'g'ri investitsiya siyosatini yuritish dolzarb mavzularda bo'lib bormoqda. Mamlakatimizda ham iqtisodiyotga innovatsion yondashuv asosida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning asosiylaridan biri yurtimizda innovatsion hududlarning tashkil etilishi va innovatsiyalarga chuqurroq e'tibor qaratish borasida maxsus iqtisodiy zonalarning bir turi bo'lgan ilmiy tadqiqot markazlari hamda texnoparklar tashkil etilmoqda[1]. Hozirgi vaqtda viloyatlar miqyosida 13 ta innovatsion hududlar tashkil etilgan bo'lib, ularni millionlik shaxarlarga aylantirish ishlari olib borilmoqda[2].

[1] MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti +99893 558 41 48, abdukaxaroff@mail.ru ORCID: 0000-0001-5111-9042, Raimjonova Madina Asrorovna Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori ORCID: 0000-0001-8942-572

[2] O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari. Manba: https://innovation.gov.uz/innovativeregions

O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60 son Farmonida iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda “Global innovatsion indeks”da O’zbekiston Respublikasining o’rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish kabi maqsadlar o’z aksini topgan[3]. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF – 165-son Farmoniga 1-ilovasida innovatsion hududlarda to’plangan tajribani boshqa hududlarga bosqichma-bosqich joriy qilish orqali mamlakat markazidan olis hududlargacha “tubdan yangilovchi” innovatsiyalarning kirib borishini ta’minlash. Jumladan, innovatsion rivojlantirish hududlarida 2022-2026-yillarda kichik innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish uchun tayyor “1000 ta innovatsion loyihalar” takliflar portfelini shakllantirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish. Shuningdek, muvaffaqiyatli kichik innovatsion ishlab chiqarish tashkilotlarini respublikaning boshqa geografik hududlariga transfer qilish, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarni hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlarini ishlab chiqish, hududlardagi iqtidorlarni aniqlash, rag’batlantirish va ilm-fan bilan shug’ullanishlari uchun markaziy oliy ta’lim muassasalari, Yoshlar akademiyasi va Fanlar akademiyasi tizimiga “Akademik harakatchanlik” va “Bo’lajak olim” dasturlari orqali jalb qilish yangi avlod ilm-fan jamoalari va maktablarini shakllantirib borish va boshqalar kiritilgan[4]. Jahon intellectual mulk tashkiloti e’lon qilgan Global innovatsiya indeksida 133 davlat orasida O‘zbekiston 83-

[3] O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son Farmoni. Manba: https://lex.uz/ru/docs/- 5841063 6

[4] 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, https://lex.uz/acts/-6102462

o‘rinni egalladi va mintaqadagi 10 davlat ichida to‘rtinchi o‘rinni qayd etdi. Bu esa mamlakatdagi innovatsion siyosatning amaldagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi farmonga muvofiq 2022-2026-yillarda O’zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi loyihasi ishlab chiqilgan, Loyihada “Innovatsiya-kapital-innovatsiya” uzluksiz innovatsion ekotizimni rivojlantirish yo’nalishlari, takliflar, amalga oshiriladigan “drayver” loyihalar, drayver loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar ham aks etgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish, aholining bandligini oshirish va turmush darajasini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar muhim omil hisoblanadi. Innovatsion menejment resurslardan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish hamda mahalliy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, hududiy boshqaruvda innovatsiyalardan foydalanish kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga, buning orqasidan yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aschauer, D. A. (1989). Is Public Expenditure Productive? Journal of Monetary Economics, 23(2), 177–200.
2. Banister, D., & Berechman, Y. (2001). Transport Investment and Economic Development. UCL Press.
3. Calderón, C., & Servén, L. (2004). The Effects of Infrastructure Development on Growth and Income Distribution. Policy Research Working Paper 3400, World Bank.
4. Vickerman, R. (2008). Transit Investment and Economic Development. Research in Transportation Economics, 22(1), 31–50.
5. Rodrigue, J. P., Comtois, C., & Slack, B. (2013). The Geography of Transport Systems (3rd ed.). Routledge.
6. Lakshmanan, T. R. (2011). The Broader Economic Consequences of Transport Infrastructure Investments. Journal of Transport Geography, 19(1), 1–12.